

**№ 2 (3) 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 2 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

**Юлдашев Анвар Эргашевич** – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Мавланов Уктам Махмасабирович** – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Хазраткулов Аброр** – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

**Ҳакимов Назар Ҳакимович** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Яхшиликов Жўрабой** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

**Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

**Ҳошимхонов Мўмин** – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

**Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна** – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Ахмедов Ойбек Сапорбаевич** – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

**Қўчимов Шуҳрат Норқизилович** – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

**Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна** – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

**Кучкаров Рахман Урманович** – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

**Юнусов Мансур Абдуллаевич** – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдов Улугбек Арипович** – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **ЮРИДИК ФАНЛАР:**

**Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Эсанова Замира Нормуротовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

**Зулфиқоров Шерзод Хуррамович** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

**Хайитов Хушвақт Сапарбаевич** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Асадов Шавкат Ғайбуллаевич** – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдуллаев Шахзод Алиханович** – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

### **ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

**Хашимова Дильдархон Уринбоевна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Ибрагимова Гулнора Хавазматовна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Закирова Феруза Махмудовна** – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

**Тайланова Шохидা Зайнисевна** – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Каримова Васила Маманосировна** – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Ҳайитов Ойбек Эшбоевич** – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

**Умарова Навбаҳор Шокировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

**Атабаева Наргис Батировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Қодиров Обид Сафарович** – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Латипова Нодира Мухтаржановна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

**Сеитов Азамат Пўлатович** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

**Содиқова Шоҳида Марҳабоевна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **СИЁСИЙ ФАНЛАР**

**Назаров Насриддин Атакулович** –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура курилиш институти;

**Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич** –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй.

#### **Электрон манзил:**

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек Наимович  
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ШАҲАРЛАРИ КЛАССИФИКАЦИЯСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (1970-2022 йиллар) ..... 7-13

Махмудова Азизаҳон Носировна  
ПАЛЕОЛИТШУНОСЛИК СОҲАСИ РИВОЖЛАНИШИДА Р. Х. СУЛЕЙМАНОВ  
ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ..... 14-21

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Kurpayanidi Konstantin Ivanovich  
MODERN DIGITALIZATION: PRIORITIES AND PROSPECTS IN THE CONTEXT OF ECONOMIC  
TRANSFORMATION ..... 22-28

Паязов Мурод Максудович  
ДАВЛАТ ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИГИ АСОСИДА ТЕМИР ЙЎЛ ХИЗМАТЛАРИНИ  
РИВОЖЛАНТИНИРИШДА: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР ..... 29-37

Шохўжаева Зебо Сафоевна  
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА СУВТЕЖАМКОР СУГОРИШ УСУЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ  
САМАРАДОРЛИГИ ..... 38-45

Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna  
INSON KAPITALI RIVOJIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ..... 46-50

Элбоев Бобур Ботирович  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА САВДОНИ МОЛИЯЛАШТИРИШДА БАНК КАФОЛАТИ ВА  
ЗАХИРА АККРЕДИТИВНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШI ..... 51-60

Ermatov Akmaljon Akbaraliyevich  
O'ZBEKİSTONDA MOLİYAVİY BOSHQARUV TİZİMİNİ RIVOJLANTIRISH ..... 61-68

Абдиқулова Дилноза Абдуқадировна  
АГРАР СОҲА ЎСИШИНИ МАКРОИҚТИСОДИЙ КЎРСАТКИЧЛАРГА ТАЪСИРИНИ  
СТАТИСТИК ЎРГАНИШ ..... 69-74

Qudbiyev Nodir Tohiro维奇, Tojimatov Abdumutalibjon Abduqayumovich  
KORXONALARNING TIJORAT BANKLARI BILAN O'ZARO MUNOSABATLARI TİZİMİNİ  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ..... 75-84

Rasulova Shaxnoza Xatamovna  
XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA TASNIFFLASHNING IQTISODIY AHAMIYATI .. 85-93

Болтаев Нурали Шираматович  
АГРАР ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЙЁРЛАНАЁТГАН КАДРЛАРНИ МЕҲНАТ  
БОЗОРИДА РАҶОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ..... 94-103

**09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***Tulaganov Muminjon Taxtamuratovich*

JAMIYATDA FUQAROLARNING HUQUQIY -SIYOSIY ONGINING YUKSALTIRISHDA  
ETNOMADANIY OMILLARNING O'RNI ..... 104-109

*Aripov Alisher Abdumalikovich*

YOSHLAR MA'NAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY VA DINIY BAG'RIKENGLIKNING  
O'RNI ..... 110-117

*Xabib Sattorov*

TASAVVUF TA'LIMOTIDA SHARIAT, TARIQAT, MA'RIFAT, HAQIQAT BOSQICHLARI .... 118-123

*Турсинбай Султонов*

ИСТЕДОДНИНГ ИККИ МУХИМ ТОМОНИ ..... 124-132

*Сафаров Улугбек Турсунович*

МАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИННИГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .... 133-138

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ***Бектурсынова Айсултан Марат кызы*

М.М. БАХТИН КАК ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ УЧЕНОГО-ФИЛОЛОГА  
ФИЛОСОФСКОГО ТИПА ..... 139-145

*Назарова Сайёра Азимжановна*

ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ТЕРМИНЛАРИНИ ТАРИХИЙ  
БОСҚИЧЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ..... 146-151

*Isroilova Manzura Jamolovna*

BOSMA NASHRLARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK  
TRANSFORMATSIYASI ..... 152-156

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР***Утемуратов Махмут Ажимуратович*

ҲУҚУҚ ИЖОДКОРЛИГИ ТАКОМИЛЛАШУВИГА ҲУҚУҚИЙ НИГИЛИЗМ ВА ҲУҚУҚИЙ  
ИДЕАЛИЗМНИНГ ТАЪСИРИ ..... 157-162

*Узакова Гўзал Шариповна*

БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТ МАҶСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА ҚАШШОҚЛИК ВА ОЧЛИКНИ  
ТУГАТИШ, СОҒЛИК ВА ФАРОВОНЛИККА ИНТИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ҲУҚУҚИЙ  
АСОСЛАРИ ..... 163-175

*Abdixakimov Islombek Bahodir o'g'li*

SUG'URTA FRANSIZASI VA UNING TURLARI HAQIDA ..... 176-180

**13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ***Мамадалиева Нулуфар Баҳодировна*

ЎҚУВ ФАНЛАРИ ТАЯНЧ ТУШУНЧАЛАРНИ ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ БОШЛАНГИЧ

СИНФ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ОҒЗАКИ НУТҚ ВА ФИКРЛАШ ФАОЛИЯТИНИ

ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 181-185

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

**Rasulova Shaxnoza Xatamovna,**  
Farg'ona Politeknika Instituti,  
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasи, assistenti,  
e-mail: [rasulova.sh@ferpi.uz](mailto:rasulova.sh@ferpi.uz), +998 97 504 08 80.

## **XARAJATLARI HISOBINI TASHKIL ETISH VA TASNIFASHNING IQTISODIY AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Maqolada korxona xarajatlarini tasniflash variantlari, xarajatlar turlarini individual xususiyatlar bo'yicha guruhlashning ahamiyati, tasnifashning ahamiyati ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsad sifatida xarajatlarini tasniflash variantlari orasida eng optimalini aniqlashga qaratilgan. Buning uchun taniqli iqtisodchi olimlar asarlarida tadqiqotlar tahlili olib borish usullaridan foydalananligan. Muallif tomonidan innovatsion mahsulotlar yaratish va mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan xarajatlarini tasniflash uchun takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** xarajatlar; xarajatlarni kamaytirish; ishlab chiqarish xarajatlari; xarajatlarini tasniflash; mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarish.

**Расулова Шахноза Хатамовна,**  
Ферганский Политехнический Институт,  
ассистент, кафедры “Бухгалтерский учет и аудит”

## **ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ И КЛАССИФИКАЦИИ УЧЕТА ЗАТРАТ**

**Аннотация.** В статье рассмотрены варианты классификации затрат предприятия, важность классификации видов затрат по индивидуальным характеристикам, важность классификации. Целью исследования является определение наиболее оптимального из вариантов классификации затрат в качестве цели. Для этого были использованы методы проведения исследовательского анализа в работах известных ученых-экономистов. Автором были внесены предложения по классификации затрат на инновации, направленные на создание продуктов и повышение качества выпускаемой продукции.

**Ключевые слова:** затраты; снижение затрат; затраты производства; классификация затрат; производство продукции, работ и услуг.

**Rasulova Shakhnoza Khatamovna,**  
Fergana Polytechnic Institute,  
Assistant, Department of Accounting and Audit.

## **ECONOMIC SIGNIFICANCE OF THE ORGANIZATION AND CLASSIFICATION OF COST ACCOUNTING**

**Abstract.** The article will consider options for classifying the costs of an enterprise, consider the importance of grouping types of costs by individual characteristics, consider the importance of classification. The purpose of the study is to determine the most optimal of the cost classification options as a goal. For this purpose, the methods of conducting research analysis in the works of well-known scientists and economists were used. The author made

proposals on the classification of innovation costs aimed at creating products and improving the quality of products.

**Keywords:** cost; cost reduction; production costs; cost classification; production of products, works and services.



<https://doi.org/10.47390/1342V3I2Y2023N11>

### Kirish.

Zamonaviy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan har bir sanoat korxonasining asosiy maqsadi iste'molchilarning ehtiyojini qondira oladigan arzon hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarish asosida yuqori daromad olish hisoblanadi. Har qanday mahsulot ishlab chiqarish esa jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari sarfini taqozo qiladi. Bular xom ashyo, materiallar, energiya va yoqilg'i resurslari, ish haqi va boshqa xarajatlar bo'lib, korxona ushbu xarajatlarni kamaytirishdan manfaatdordir.

Xarajatlarni pasaytirish shuningdek mahsulot va ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, mavjud resurslar bilan ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishning muhim omili bo'lib hisoblanadi. Shu sababdan xarajatlarni kamaytirib borish va shu asosda foyda miqdorini ko'paytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida sanoat ishlab chiqarishning uzluksiz rivojlanishi tufayli nafaqat mahsulotlarning hajmi ko'paydi va sifati yaxshilandi, balki ularni tayyorlash uchun sarflangan xarajatlar miqdori keskin kamaydi va oqibat natijada sanoat tarmoqlarining rentabelligi yuqori darajaga ko'tarildi.

Har qanday ishlab chiqarish moddiy ne'matlar va xizmatlarni yaratish jarayoni sifatida tirik mehnatni ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtirishga asoslanadi. Bu jarayon doimiy ravishda davom etadi, shuning uchun u doimiy xarajatlarni talab qiladi. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlari juda ko'p va xilma-xildir. Xarajatlarning ayrim turlari keng tarqalgan, chunki ular mahsulotlar birgalikda ishlab chiqarilganda paydo bo'ladi va bir nechta turdag'i mahsulotlar yoki bo'linmalarga tegishli bo'lib, shuning uchun ushbu turdag'i mahsulotlar yoki bo'linmalarga taqsimlanishi kerak.

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirish va ularni tasniflash buxgalteriya hisobining eng qiyin yo'naliishlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishni tashkil yetishga ortib borayotgan talablarni taqdim etish zarurati, boshqaruv qarorlarini qabul qilishning o'z vaqtida va samaradorligi, korxonani yanada rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlarini belgilab beradi, bu o'z navbatida mahsulotlarning (ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) haqiqiy tannarxini aniqlashning to'g'ri va o'z vaqtida belgilanishiga bog'liqidir.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Mazkur tadqiqot mavzusini doirasida dunyo va mahalliy juda ham ko'plab, iqtisodchi olimlar, muhandislar samarali ishlar olib borishgan hamda borishmoqda. Jumladan, mahsulot tannarxi hisobini takomillashtirish masalalarini xorijiy va MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlari N.D.Vrublyovskiy [11], K.Duri [13], M.A. Vaxrushina [10] V.E.Kerimov [17], R.Myullendorf [18], D.Stoun, K.Xitching [22], V.F.Paliy [19], A.D.Sheremetlar [24], tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

Bu borada mamlakatimiz olimlari A.A. Abdug'aniyev [9], A.X. Rametov [21], M.Q.Pardayev [20], O.M.Jumanov [15], B.Xasanov [2] M.Umarova [23], F.G'ulomova [12] tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ular tomonidan xarajatlar turlicha talqin qilingan va guruhlangan umumiy jihatdan xarajatlarni ishlab chiqarish hajmiga tasir doirasiga qarab farqlagan:

- doimiy xarajatlar;
- o'zgaruvchan xarajatlar.

Farqli jihat shundaki ushbu guruh tarkibini tariflashda turli qarashlar va talqinlar mavjud misol uchun xorijiy professor D.Stoun va K.Xitchinglar [22; 177 b.] fikriga ko'ra – “doimiy xarajat – ma'lum vaqt davomida nisbatan doimiy bo'lib qoladigan va ishlab chiqarish hajmining tebranish yoki ishchanlik faoliyati munosabati bilan o'zgarmaydigan xarajatlardir. O'zgaruvchan xarajatlar ishchanlik darajasining o'zgarishiga mutanosib o'zgaradigan xarajatlardir” deb tariflagan.

Bu to'g'risida respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M.Umarova [23; 62-63 b.] “Mahsulot hajmiga bog'liqlik nuqtayi nazaridan xarajatlar o'zgaruvchan va shartli doimiy xarajatlarga bo'linadi. Xarajatlarni bunday guruhanishi mahsulot tannarxini tashkil qiluvchi xarajat moddalari miqdoriga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining bir xil ta'sir qilmasligi natijasida kelib chiqadi. Xarajat moddalarining ayrilmasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga mutanosib ravishda o'zgaradi. Boshqalari esa mutanosib ravishda o'zgarmaydi” — deb ta'kidlagan.

Yana bir respublikamiz iqtisodchi olimlaridan F.G'ulomova [12; 89 b.] – “ishlab chiqarish xarajatlarini tayyorlanayotgan mahsulotning ishlab chiqarish miqdoriga bog'liqligiga qarab sarflangan ikki guruhga o'zgaruvchan va shartli o'zgarmaydigan xarajatlarga bo'lishni taklif etgan. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinch hajmida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatları (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov uskunalarga xizmat ko'rsatish uchun sarflar, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi” deb yozgan edi.

“Ishlab chiqarish xarajatlari — bu bevosita mahsulotlarni (ish, xizmatlarni) ishlab chiqarishga ketgan, shuningdek, ularning tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar” deb K.B. Urazov, M.E. Pusatov [8; 290 b.] “Buxgalteriya hisobi” darsdigida yozgan edi.

Iqtisodchi olimlaridan B.Safarov va T.Raxmanov [7; 247b.] “Xarajat – bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo'lib, daromadlar va xarajatlar konsepsiyasiga ko'ra, shu davrning o'zida daromad keltirishi kerak” deb tariflagan. Hudi shunday ta'rifni F.T. Abduvaxidov, I.N. Qo'ziyev, Sh.X. Dadabayev [1; 190 b.] “Buxgalteriya hisobi” darslikgida keltirib otishgan.

Bunda tashqari respulikamiz olimlaring ko'plab adabiyotlarda 1-son BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” da [25] birilag “Xarajatlar –aktivlarning qisqarishi yoki sarflanishi natijasida iqtisodiy resurslarning kamayishi, shuningdek daromadlarni olishga oid xo'jalik sub'ektining odatiy faoliyati natijasida majburiylarning paydo bo'lishidir” tarifdan foydalaniladi.

Bugungi kunda olimlar orasida xarajatlarni guruhlash asoslari to'g'risida kelishuv mavjud emas, zamonaviy boshqaruv hisobi nazariyalari mualliflarining har biri xarajatlarning o'ziga xos tasnifini beradi [14].

Har bir korxona xarajatlarini ya'ni tannarxni kamaytirishga harakat qiladi. Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport salohiyatini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan tejamkorlikka erishish hamda mahsulot va xizmatlar tannarxini pasaytirishga bog'liq. Shunga ko'ra, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev [26] "tarmoqlar bo'yicha mahsulotlar tannarxi o'rtacha 10 foizga qisqartirilgan bo'lsa-da, kimyo va engil sanoat, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa bir qator tarmoqlarning ayrim mahsulotlari qimmatligi sababli tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'la olmayapti. Ayrim korxonalar zarar bilan ishlahmoqda" deb o'rinni ta'kidlandi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur mavzuni yoritishda mavzu doirasida olib borilgan ilmiy ishlar, o'quv adabiyotlar, maqolalar tizimli o'rganilib, ularda yoritilgan ilmiy ma'lumotlar, xulosa va fikrlar qiyosiy tahlil etildi. Shular asosida mualliflarning o'z xulosalari umumlashtirib berildi.

### **Natija va muhokamalar.**

Korxona sarf-xarajatlarini turli guruhlarga ajratish bu o'z navbatida iqtisodiy samarali faoliyatidir, chunki ushbu yechim xarajatlarning qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Umuman olganda buxgalteriya hisobi tizimini va xususan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimini tashkil etishda, texnologik jarayonni, ishlab chiqarishni tashkil etish xususiyatlarini, boshqaruv tuzilmalarini, texnik jihozlar va boshqa shu kabi omillarni hisobga olish kerak va bular quyidagi omilarni o'z ichiga oladi:

- tegishli moddalar bo'yicha ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatlarini o'z vaqtida va xolisona aks ettirish;

- korxona resurslarining oqilona foydalanish ustidan tezkor nazoratni amalga oshirish barcha turlari bo'yicha;

- tashkilot ishchilarini va mol-mulkini majburiy sug'urta qilish xarajatlari;
- mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Hisobot davrining ishlab chiqarish tannarxiga oldingi hisobot davrlarining xarajatlari ham kiradi, bu texnologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish va mahsulot (ish, xizmat) tannarxini hisoblash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar)tannarxini hisoblash uchun xarajatlarni tasniflash va ularni guruhlashning iqtisodiy asoslari;

- ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar)tannarxiga kiritilgan xarajatlar tarkibini aniqlash;

- xarajatlarning har bir elementini baholash usullarini ishlab chiqish va asoslash, ularni tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish o'rtasida taqsimlash, bilvosita xarajatlarni taqsimlash, hisoblangan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) va hisoblash birliklari hajmini aniqlash, hisoblash davriyligini (muddatlarini) belgilash;

- birlashtirilgan mahsulot turlari o'rtasida xarajatlarni taqsimlash va qo'shimcha mahsulotlarni baholashni asoslash;

- hisoblash varaqalarini (hisob-kitoblarni) qurish va ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) tannarxini hisoblash.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishni tashkil etishning ajralmas elementi ularning tasnididir, xususan, xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita taqsimlashni ta'minlaydi. To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri asosda (ishlatilgan xom ashyo va asosiy materiallar narxi, to'g'ridan-to'g'ri ish

haqi va boshqalar) to'g'ridan-to'g'ri uning narxiga bog'liqdir, bilvosita-bu bir necha turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq yoki ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'limgan va qabul qilingan bazaga mutanosib ravishda mahsulotlar o'rtasida taqsimlanadigan xarajatlar kiradi (umumiyligi ishlab chiqarish va umumiyligi biznes xarajatlari, mutaxassislar va boshqaruv xodimlarining ish haqi va boshqalar).

Qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish bosqichlarida boshqaruv ehtiyojlari uchun axborot bazasini shakllantirishning asosiy mezonini bo'lib ishlab chiqarilgan mahsulotlar sonining o'zgarishi munosabati bilan ishlab chiqarish xarajatlarining xattiharakatlarini o'rganishning tahlili hisoblanadi. Xarajatlarning xususiyatiga qarab, xarajatlar doimiy va o'zgaruvchilarga bo'linadi. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish faoliyatidagi o'zgarishlarga qaramay, ularning asosiy qismida o'zgarishsiz qoladi. Ushbu toifadagi xarajatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular ishlab chiqarishning o'sishi bilan emas, balki vaqt o'tishi bilan to'planadi. O'zgaruvchan xarajatlar miqdori mahsulot ishlab chiqarish hajmiga (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) bog'liqdir. Xarajatlarni o'zgaruvchilar va doimiylarga bo'lish hajmning muhim nuqtasini, rentabellik chegarasini, raqobatbardoshlikni hisoblash asosida yotadi va oxir-oqibat tashkilotning iqtisodiy siyosatini tanlashga ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish, tovarlar, ishlar, xizmatlar tannarxiga kiritilgan xarajatlar ularni iqtisodiy elementlar va xarajatlar moddalari bo'yicha quyidagi yo'naliishlarda guruhlash yo'li bilan shakllantiriladi:

- ishlab chiqarish turlari (asosiy, yordamchi, xizmat ko'rsatish);
- tashkilotning tarkibiy bo'linmalari;
- mahsulot turlari, guruhlari (ishlar, xizmatlar).

An'anaga ko'ra xarajatlarning quyidagi elementlari ajratiladi:

- moddiy xarajatlar;
- mehnat xarajatlar;
- ijtimoiy ehtiyojlar uchun ajratmalar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi;
- boshqa xarajatlar.

Har bir elementning xarajatlar tarkibi ishlab chiqarishning tarmoq xususiyatlariga bog'liq va tegishli sohadagi mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) narxini rejalashtirish, hisobga olish va hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar bilan belgilanadi.

Ayrim turdag'i mahsulotlar tannarxini rejalashtirish, hisobga olish va hisoblash uchun ularni ishlab chiqarish xarajatlari hisoblash moddalari bo'yicha guruhlanadi. Ishlab chiqarish xarajatlarining hisoblash moddalari nomenklaturasi va ularni turli xil mahsulotlar (guruhlar) o'rtasida taqsimlash metodologiyasi, shuningdek, tegishli sohada mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxini rejalashtirish, hisobga olish va hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalarga muvofiq ishlab chiqilgan [3], [4]. Shu bilan birga, dastlabki hujjalarga muvofiq to'g'ridan-to'g'ri ma'lum turdag'i mahsulotlar tannarxiga bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish uchun to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni maksimal darajada taqsimlashni ta'minlaydigan analitik buxgalteriya hisobini qurish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash moddalari yoki elementlari bo'yicha guruhlashdan foydalanish har doim ham xarajatlarni boshqarish vazifalariga to'liq javob bermaydi. Buning uchun javobgarlik markazlari kabi buxgalteriya obyektlari ajratiladi. Xarajatlarni boshqarish tizimining asosiy funktsiyalari prognozlash va rejalashtirish,

buxgalteriya, nazorat qilish (monitoring), muvofiqlashtirish va tartibga solish, shuningdek, xarajatlarni tahlil qilish hisoblanadi [6]. Mas'uliyat markazi-bu korxonaning tarkibiy bo'linmasi bo'lib, uning doirasida uning rahbari faoliyat samaradorligi va shu jumladan xarajatlar uchun javobgardir. Bu ishlab chiqarish xarajatlarini nafaqat butun tashkilot doirasida, balki alohida javobgarlik markazlarida (tarkibiy bo'linmalar) tasniflashni talab qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish shunday tashkil etilishi kerakki, ishlab chiqarilgan mahsulotning har bir turi va navi, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar narxini aniqlash mumkin. Shu maqsadda mahsulot turiga, ish va xizmat turlariga, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishiga qarab buxgalteriya hisobi quyidagi usullardan biri bilan amalga oshirilishi mumkin:

- jarayonlar bo'yicha (o'zgarishlar, bosqichlar, ish bosqichlari);
- mahsulot turlari bo'yicha – yuqori ixtisoslashgan ishlab chiqarishda;
- buyurtmalar bo'yicha-shartnomalar bo'yicha maxsus buyurtmalar ishlab chiqarishda;
- tannarxni hisoblashning buyurtmali va jarayonli tizimlarini qo'llash orqali tannarxni va xarajatlarni optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish [16];
- yuqoridagi usullarni o'z ichiga olgan kombinatsiyalangan usulda – turli xil mahsulotlar va ishlarni ishlab chiqarishda.

Agar tashkilot xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri taqsimlash imkoniyatiga ega bo'lsa (bir yoki bir nechta bir xil turdag'i mahsulotlar ishlab chiqariladi), ular to'g'ridan-to'g'ri 20 "Asosiy ishlab chiqarish" hisob varag'ida hisobga olinadi. Agar tashkilotning ustaxonalarda bir nechta turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarilsa, xarajatlar analitik hisob varaqlarda oldindan to'planib, keyin mahsulotlarga taqsimlanadi. Uzoq vaqt davom etadigan katta hajmdagi ishlab chiqarishdagi umumiyligida xarajatlar har oyda, kichik hajmdagi va individual ishlab chiqarishda – buyurtma bajarilgandan keyin taqsimlanadi.

Respublikamizda xarajatlarini hisobini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 15-oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi, hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom" ga asoslangan.

Ushbu nizomning mohiyati shundan iboratki, korxona hisobot davrida ishlab topgan (xizmatlar ko'rsatgan) daromadi foydasi asos qilib olingan hamda aynan shu tizim asoslangan holda xarajatlar tarkibi va ularning guruhlanishi belgilangan. Shuni bilan birga bizningcha korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib va kompleks yondashuv maqsadga muvofiqdir, ushbu tizimdan foydalanish korxona faoliyatining yuqori iqtisodiy natijalariga erishishga imkon beradi.

Yana bir asosiy masala sifatida mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan tizim bugungi kun talabidir, yuqoridagi nizom bu masalani ikkilamchi vazifa sifatida ko'rsatadi, ushbu fikrimiz asoslash uchun quyidagilarni keltirib o'tamiz:

- birinchidan, o'sha yillarda va hozir ham sifatni yaxshilashga qaratilgan xarajatlarini hisobga olishning aniq metodologiyasi ishlab chiqilmagan, bu samarali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish rag'batlantirish tizimini amalda tashkil qilishni qiyinlashtiradi;
- ikkinchidan, sifat xarajatlarini hisobga olish faqat boshqaruv hisobi tizimini tashkil etish orqali amalga oshirish mumkin. Yuqoridagi tasniflar va qabul qilingan nizom qabul qilingan yillarda yurtimizda buxgalteriya hisobida "boshqaruv hisobi" tushunchasi hali mavjud emas edi;

- uchinchidan, sifat menejmenti sohasida amaliyotchilar-mutaxassislar yo'q edi, chunki mamlakatdagi ta'lif muassasalari ularni tayyorlash yo'nalishlari hali mavjud emas.

Bugungi kunga kelib mahalliy va xorijiy mutaxassislarining nashrlarini umumlashtirish, shuningdek o'z tadqiqotlari asosida jadvalda keltirilgan xarajatlar tasnifi ishlab chiqildi. (1-jadval)

1-jadval

### **Mahsulot sifati yaxshilashga qaratilgan xarajatlar tasnifi**

Tasniflash xususiyati	Xarajatlarni tasniflash guruhi
Belgilangan maqsadga muvofiq	<ul style="list-style-type: none"> <li>- sifatni yaxshilash;</li> <li>- sifatni ta'minlash uchun;</li> <li>- sifat menejmenti bo'yicha.</li> </ul>
Xarajatlarning iqtisodiy tabiat bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- joriy (doimiy);</li> <li>- birdaniga (bir martalik)</li> </ul>
Xarajatlar turi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- samarali;</li> <li>- samarasiz</li> </ul>
Aniqlanish usuli bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- to'g'ridan-to'g'ri;</li> <li>- bilvosita</li> </ul>
Hisobini tashkil etish bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish mumkin;</li> <li>- to'g'ridan-to'g'ri hisobga olinmaydi;</li> <li>- iqtisodiy jihatdan hisobga olinmaydigan xarajatlar</li> </ul>
Mahsulotning hayot aylanish bosqichlari bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mahsulotning loyihalashtirish bosqichi bo'yicha;</li> <li>- mahsulot ishlab chiqarish bosqichi bo'yicha;</li> <li>- mahsulotlardan foydalanganda bosqichi bo'yicha</li> </ul>
Ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan	<ul style="list-style-type: none"> <li>- asosiy ishlab chiqarishda sifat bo'yicha;</li> <li>- yordamchi ishlab chiqarishda sifat bo'yicha;</li> <li>- ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda sifat bo'yicha</li> </ul>
Buxgalteriya usuli bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- rejalarashtirilgan;</li> <li>- haqiqiy</li> </ul>
Tuzilishning tabiat bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- korxona uchun;</li> <li>- ishlab chiqarish uchun (ustaxona, uchastka);</li> <li>- mahsulot turlari bo'yicha</li> </ul>
Buxgalteriya hisobini shakllantirish obyektlari bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mahsulotlar;</li> <li>- jarayonlar;</li> <li>- xizmatlar</li> </ul>
Buxgalteriya turi bo'yicha	<ul style="list-style-type: none"> <li>- operativ;</li> <li>- analitik;</li> <li>- buxgalteriya bo'yicha;</li> <li>- maqsad bo'yicha.</li> </ul>

Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagilar ajratiladi: sifatni yaxshilash, sifatni ta'minlash va sifat menejmenti xarajatlari. Iste'molchining kutilayotgan talablarini qondirishga qaratilgan xarajatlar xarajatlarning birinchi guruhiga kiradi. Ikkinchi guruhga iste'molchi tomonidan mahsulot yoki xizmatlar sifatiga qo'yiladigan talablarni qondirish uchun qilingan barcha xarajatlar kiradi. Mahsulotlar (xizmatlar) sifatining aniqlash yoki yuzaga kelishi

mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan tuzatish va profilaktika choralarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun xarajatlар sifat menejmenti xarajatlari deb tan olinadi. Xarajatlarning bunday tasnifi korxonaning sifat sohasidagi faoliyatining zamonaviy mazmuniga mos keladi.

Biroq, amalda, ma'lum bir guruhga xarajatlarni belgilash qiyin, chunki, masalan, sifatni ta'minlash xarajatlarining tarkibi va tuzilishi sifatni yaxshilash hamda sifat menejmenti xarajatlarining alohida elementlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bizning fikrimizcha, yuqorida aytib o'tganimizdek, mahsulot sifatni yaxshilashga qaratilgan nizomni ishlab chiqish ushbu qiyinchiliklardan qochishga imkon beradi. Ushbu xarajatlarni ajratish uchun asos sifatida buxgalteriya hisobi metodologiyasi yondashuvlaridan foydalanishni tavsiya etamiz: sifatni ta'minlash xarajatlari joriy xarajatlar hisoblanadi va sifatni yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar uzoq muddatli xarajatlarga bog'liq bo'ladi.

### **Xulosa.**

Korxonalarda ishlab chiqarish hisobini tashkil etish asosan ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil etilishiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xususiyatiga, boshqaruv tuzilishiga va xo'jalik operatsiyalarini hujatlashtirish jarayonlarini belgilaydigan boshqa omillarga, ularni tizimlashtirish, umumlashtirish va taqdim qilish, sintetik va analitik buxgalteriya hisobini yuritish, xarajatlarni farqlash va taqsimlashga va boshqalarga bog'liq.

Har bir korxona o'zi uchun o'z maqsadlariga yanada aniqroq javob beradigan va ishlab chiqarish va umuman korxonaning samaradorlik va rentabelligini oshirishga olib keladigan buxgalteriya usulini mustaqil ravishda tanlashi kerak [5].

Tegishli tarmoq yoki iqtisodiy faoliyat turining xususiyatlaridan kelib chiqib xarajatlarni tasniflash har bir xo'jalik yurutuvchi subyektning samarali xarajatlarni boshqaruv tizimini yaratishga olib keladi. Shuning uchun boshqaruv hisobi uchun xarajatlarni tasniflash yo'nalishlari eng mos va to'liq bo'lib, ular uning ehtiyojlariga to'liq javob beradi va boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Yuqoridagi mexanizmdan foydalanish buxgalteriya registrlarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari bo'yicha hisob-kitoblarning birligini ta'minlaydi va shuning uchun korxona natijalarini shakllantirish ustidan nazoratni oshirishga imkon beradi.

Shunday qilib, biz ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilishni optimallashtirish yo'nalishlaridan biri sifatida mahulot sifatni oshirini rag'barlantirish tizimi shakilantirish, bizning fikrimizcha bugungi kunning talabidir. Ushbu masala bo'yicha keyingi tadqiqotlarni yuqorida ko'rsatilgan mexanizmni amaliy amalga oshirish, buxgalteriya registrlarini ishlab chiqish, buxgalteriya hisobida ham, balansdan tashqari buxgalteriya hisobida ham mahsulot ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan axborot oqimlarining ishonchli shakllanishini ta'minlash sohasida amalga oshirish maqsadga muvofiqli.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 2019. - 403 b.
2. B.A.Xasanov, A.A.Xashimov.Boshqaruv hisobi. Darslik. Cho'lpon nomidagi NMIU.2013-312-b.

3. Khatamovna, R. S. (2021). The Importance of Cost Behavioral Information to Improve the Efficiency of Factory Management. Journal of Marketing and Emerging Economics, 1(7), 19-24.
4. Khatamovna, R. S. (2022). The Importance of Information about Cost Behavior to Increase Efficiency of Enterprise Management. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 190-195.
5. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamonaviy usullari. Scientific progress, 3(1), 442-448.
6. Rasulova, S. X. (2021). ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNI TO'G'RI HISOBGA OLISH ZARURIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 713-718.
7. Safarov B., Raxmanov T. Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDU, 2019. -388 bet.
8. Urazov K.B., Pulatov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darsdik. - Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020, 558 bet.
9. Абдуғаниев А.А. Бошқарув ҳисобини ташкил этиш муаммолари, уларнинг ечимлари.-Тошкент, 2003. -275 б.
10. Вахрушина, М. А. Бухгалтерский управленический учет: учеб. для студентов вузов, обучающихся по экономическим специальностям / М. А. Вахрушина. — 8-е изд., испр. — М.: Издательство «Омега Л», 2010. — 570 с
11. Врублевский Н.Д. Управленческий учет издержек производства: теория и практика. М.:, 2002. – 352 с.;
12. Гуломова Ф.Г. Бухгалтерия ҳисоби бўйича амалий қўлланма. – Т.: 2004. – Б.141
13. Друри К. Учет затрат методом стандарт-кост. Пер.с анг. /Под ред. Эриашвили Н.Д. – М.: Аудит, ЮНИТИ, 1998 – 224с.
14. Жигунова О.А., & Ковалёв А.С. (2019). О классификации затрат. Инновации и инвестиции, (1), 112-115.
15. Жуманов О. Бошқариш ҳисоби: иқтисоди ривожланган мамлакатларнинг тажрибаси (Русчадан муаллифлаштирилган таржима). – Тошкент, 2001. -152 б.
16. Kurbonova, S. A. (2021). MAHSULOT TANNARXI HISOBIGA OLISHDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Scientific progress, 2(8), 603-607.
17. Керимов В.Э., Управленческий учет.- М.: Даշков и.К0.,2003. 414 с.
18. Мюллендорф Р., Корренбауэр М. Производственный учет. М.:, 1996. – 158 с.;
19. Палий В.Ф. Организация управленческого учета. М.: МАКС-ПРЕСС, 2003. 224с.
20. М.Қ.Пардаев, Б.А.Хасанов, Ж.И.Исройлов, М.Э.Пўлатов, Ў.Т.Эшбоев, А.Н.Холиқулов. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. Т.: ТДИУ ва СамИСИ, 2011. - 239 бет.
21. Раметов А.Х. Теория и практика управленческого учета на сельскохозяйственных предприятиях. Автореф. дисс. доктор эконом. наук. Воронеж, 2003 г.
22. Стоун Д., Хитчинг К. Бухгалтерский учет и финансовый анализ. СПБ. – М.: 1994. – С. 187;
23. Умарова М. ва бошқалар. Бухгалтерия ҳисоби. – Т.: Мехнат, 2004. – Б.163.
24. Шеремет А.Д. Управленческий учет. М.: ФБК-ПРЕСС1999. 512 с.
25. 1-son BHMS Hisob siyosati va moliyaviy hisobot.
26. <https://president.uz/-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti>.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 2 (3) - 2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).